Dramatik asarda ichki monolog

Vaziraxon Axmedova
Renessans ta'lim universiteti,
Filologiya kafedrasi dotsenti (PhD)
vaziraahmedova1112@gmail.com
Marjona Po'latova
Renessans ta'lim universiteti,
Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dramatik asarda monolog, ichki monolog kabi nutq shakllari hamda ularning qahramon ruhiyatini ochishdagi o'rni tahlilga tortilgan. Dramatik asarlarda personajlarning ruhiyatini, ichki hissiyotlarini yoritib berishda monolog va ichki monologning ahamiyati bevosita dramatik asarlar tahlili misolida tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: drama, personaj, remarka, monolog, ichki monolog, kolliziya, konflikt, nutq, individual monolog.

Personajning hayot haqidagi eng muhim o'ylarini bir joyga yig'ib, yorqin ifoda etgan, personaj tomonidan boshqalarning yo'qligida yoki ular jim turgan xolda aytilgan nutq *monolog* deb ataladi. Monolog personajning ichki dunyosini uning o'z tili bilan batafsil va hayajonli tarzda ochib beradi. Personajning ruhiy xolatini uning o'ylari orqali izhor etgan yakka nutq *ichki monolog* deb ataladi. Drama uchun xarakterili narsa, personajlarning individual ichki monologlarini berish. Ichki monolog ham turli yo'sinda paydo bo'ladi, har xil ma'noda izhor etiladi. Dialogdan farqli monologning ikki turi – ichki va sirtqi ko'rinishda bo'lishi adabiyotshunoslikda e'tirof etilgan. (I.Sulton. Adabiyot nazariyasi., H.Umurov. Adabiyot nazariyasi., H.Umurov va boshqalar Adabiyotshunoslik lug'ati., T.Boboev Adabiyotshunoslik asoslari). Monolog xarakterning ichki dunyosini, hissiyotlarini, ruhiyatini namoyon etishda bir vosita vazifasini bajarish bilan birga, uning asarda tasvir etilayotgan voqelikka, boshqa personajlarga bo'lgan munosabatiga ham oydinlik kiritadi va xarakat oqimining tezlashishida yordam beradi. Monologning vazifasi asardagi zaruriyatdan kelib chiqib belgilanadi.

Ichki monolog – personajning moddiylashmagan, o'ziga qaratilgan va ichidan kechuvchi nutqi, badiiy psixologizmning bevosita shakli. Ichki monolog shartli ravishda inson ongida kechayotgan o'ylov (his etish) jarayoni sifatida qabul qilinadi. Personaj ruhiyatini tasvirlash vositasi sifatida ichki monolog antik dramaturgiyadayoq ma'lum bo'lgan, uyg'onish davridan boshlab, ayniqsa keng qo'llanila boshlagan. Dramatik asarlardagi ichki monologlarda "ikki karra shartlilik"kuzatiladi. Chunki dramadagi ichki monolog moddiylashadi – talaffuz etiladi, lekin personaj sahnada yolg'izligi va nutqining o'ziga qaratilgan shartlilik asosida bu gaplarni haqiqatda voqe bo'lmagan, balki uning ongida kechgan jarayon imitatsiyasi deb qabul qilishni taqozo etadi. Shunga o'xshash, personajning boshqa personajlar bilan muloqot chog'ida "chetga" gapirish ham haqiqatda gapirilmagan deb qabul qilinadi. Yangi davr rivoyaviy epik asarlarida ham ichki monolog sahnaviylik xususiyatini saqlab qoladi: uning vositasida personaj yuz berayotgan voqealarni mushohada qiladi, izhor etadi, iqror qiladi va – shu tarzda uning ruhiyatini dramatiklashtiradi. Ichki monolog qahramonlar xarakter-xususiyatlarining namoyon bo'lishida lirizmni chuqurlashtirib boradi.

Ilhom Hasanning "Biri kam dunyo" dramasida ham muallif qahramonlarning ruhiy olamini ifodalashda, keksa onaning dardli, alamli kechinmalarini, ayaning nabirasi 10-12 yoshli Mansurning dunyo, odamlar haqidagi falsafiy mushohadalarini tasvirlashda ichki monologdan foydalangan. Ulug' ayaning eri urishdan vafot etadi. Uch nafar farzandi, ikki o'g'il va bir qizi bilan beva qoladi. Beva bo'lishiga qaramay farzandlriga bor mehrini berib tarbiyalaydi, oq yuvib-oq taraydi, oliy

ma’lumotli, uyli-joyli qiladi. Lekin farzandlar ulg‘aygandan so‘ng, ikkala o‘g‘li ham onasini qishloqda yolg‘iz tashlab, shaharada ishlash uchun qoladi. Aya nabirasi (qizining o’g’li) Mansurjon bilan birga yashaydi. Keksa aya tez-tez kasal bo‘ladi, lekin farzandlari, hatto bir qishloqda yashaydigan qizi ham undan xabar olmaydi. Aya bir umr erini kutib yashaydi, unga xiyonat qilmaydi. Ayaning dardli iztiroblarini quyidagi monologda yorqin ifodalangan:

Aya. (past, o’ksik tovushda o‘z-o‘ziga gapirib) Eh, kemtik dunyo, ko‘zlaring teshilib, quloqlaring tom bitsin-a, dunyo! Chumchuqday jonim bor, shuginani namuncha qiynamasang, o‘tdan olib, o‘tga solmasang?! Qachondir bir kun umidlarimni ro‘yobga chiqoralmas ekansan, dilimga ilinj solib buncha sabr toqat berib nima qilarding?! Nahot senga ishongan, ko‘ngil bergan har jon shundayin abgor bo‘lsa? Kel qaytar jonu-jahonimni bir bo-or... Atiga bir borgina to‘yib-to‘yib ko‘rib olay. Marhamatingni benasib etma, karamingni keng tut, ey dunyo! So‘ng, mayli, ko‘p qiynamay omonatingni ola qol...[1]

Ushbu monolog asarning boshida keltirilib, unda ayaning qalbidagi tragizm uchqunlari ko‘rinadi, ammo kuchayib ketmaydi. Asar davomidagi voqealar tizimi, asardagi tragizmni sekin-asta rivojlantiradi. Sahnada Ayaning turmush o‘rtog‘i Halim (aya turmush o‘rtog‘iga to‘ng‘ich farzandining ismi bilan, ya’ni Hakim deb murojaat qiladi)ning ruhi paydo bo‘ladi. Dramada Aya erining ruhi bilan gaplashadi, dardlarini, tez-tez tushlariga kirishini aytadi. Farzandlari haqida so‘raganda, ularni yomonlamaydi, shunchaki ularning shaharda yashayotganliklarini, vaqtlari bo‘lganda ayaning xolidan xabar olib turishlarini aytadi. Turmush o‘rtog‘i bu gaplarga ishonmaydi, farzandlarining oqibatsizligidan kuyinadi. Bu dunyoning azoblaridan qutilishi uchun uni o‘zi bilan birga olib ketmoqchi bo‘lganda, Aya cho‘chib uyg’onib ketadi va nabirasi Mansurjonni chaqiradi. Nabirasi buvisining ahvolidan qo‘rqib ketib, magazinchi ayasiga borib buvisining o‘lganligini aytadi. Qizi shaharga, akalariga xabar beradi, onasining sandig‘idagi boyliklari tarqalib ketmasligi uchun jon xolatda uyiga kelganda, ayasi tirik bo‘ladi. O‘g‘lini yolg‘onchilikda ayblaganda, o‘g‘li *“agar kasallar deganimda kelmasdingiz”*deb javob beradi. O‘g‘illari ham kela solib, ayasining sandiqdagi boyliklari haqida so‘rashadi. Uy burchagida yotgan ayaga e’tibor bermasdan, sandiqni kavlashga tushib ketishadi, u yerdan o‘zlari kutgan narsani topolmaydilar, kampirning ziqnaligidan kuyinib, boyliklarni hovlidagi devori ostiga ko‘milgan deb, devorni buzishadi, ayaning “*devorga tegmanglar, unda otangizning qo‘l izlari bor”* degan hayqirig‘iga parvo ham qilishmaydi. Tog‘alaridan, ayasidan nafratlangan Mansurjon qo‘lidagi tuxumlarga qarab, ichidagi dardlarini aytadi.

Mansurjon. Yo‘-o‘q, hayot devori sen odam bolasiga dosh berolmasding, u begunoh jo‘ja emas, o-odam! Uning makridan tars-tars yorilib ketarding. Sen yorilmasang ham, odamlarning o‘ziyoq bir-birini qovurib, qaynatib yeb qo‘yardi... Shunaqa...Sen esa xotirjam yot jo‘ja seni hech kimga bermayman..(88-bet).

Mansurjonning bu gaplari har qanday insonnin qalbini larzaga soladi. O‘z onasining, tog‘alarining bemehrligidan, odamzodning naqadar makkorligidan kuyinib aytgan so‘zlari asar syujetida muhim o’rin tutadi. Asar so‘ngida uydan hech qanday boylik, meros topa olmagan farzandlar unga o‘t qo‘yishga qaror qilishadi, bechora onaizor farzandlarining qilayotgan ishidan dod solmoqchi bo‘ladi, lekin kuchi yetmaydi, u yana erining ruhiga murojaat qilib o‘z-o‘ziga gapiradi:

Aya. Eh, kemtik dunyo, ko’zlaring teshilib, quloqlaring tom bitsin-a, dunyo! Chumchuqday bir jonni namuncha qiynamasang, o‘tdan olib, o‘tga solmasang! Yozug‘imda yana nima bor, ne bor ko‘rsat, armoning qolmasin...Gunohim ne edi mening? Yemay yedirganimm? Kiymay kiydirganimmi? Otasiz o‘ksinmasin, dedim. Endi bular na otani taniydi, na onani. Bular bizning farzandlarimiz Hakim, jigarbandlarimiz. Ularni shu ahvolda ko‘rganingizda nima qilardingiz, Hakim, bir qarang...(92-bet)

Asarning oxirida berilgan bu monologda qahramon o‘z seviklisi bilan ruhan va ma’naviy jihatdan gaplashadi, qalbini, dardini, alamlarini, butun iztiroblarini to‘kib soladi. Ushbu monologda ayaning fojiali qismati ham o‘zining yorqin aksini topgan.

[1] И.Ҳасан. Бири кам дунё. Шарқ юлдузи журнали, 1994, 1-2-сон. 80-бет

Xulosa qilib aytganda, monolog dramatik asarda vaziyatni anglashda, xarakterlar qiyofasini tasavvur etishda, harakatni yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. Birinchi tom. – Toshkent, Fan, 1978. – B. 13-22.
2. Ahmedova V.A. Mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida janrlararo diffuziyalanish // NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2020. 9-son.
3. Vazirakhon Akhmedova, Ulyanova I.N. THE INFLUENCE OF WORLD DRAMATURGY ON THE DEVELOPMENT OF UZBEK DRAMATURGY DURING THE PERIOD OF INDEPENDENCE// CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (ISSN –2767 VOLUME 05 https://masterjournals.com/index.php/crjps/article/view/1674
4. Vazirakhon Akhmedova. Enlightenment ideas in Jadid drama Debats scientifiques et orientations prospectives du developpement scientifique// Conference. Paris, 1er Mars, 2024. https://archive.logos-science.com/index.php/conference-proceedings/article/view/1663/1697
5. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – T.: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2015. – B. 17-28
6. Imomov B., Jo‘raev Q., Hakimova H. O‘zbek dramaturgiyasi tarixi. – T.: 1995.
7. Islomov T. Tarix va sahna. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1998.
8. Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha), – T.: 1968;
9. Rahmonov M. O‘zbek teatri. (Qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar). Fan, – T.: 1975;
10. Rizaev Sh. Mustaqillik davri dramaturgiyasi. / Sarchashma mavjlari. – T.: “Mashhur-press”, 2016. – B. 263-288;
11. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, O‘qituvchi, 2005. – B. 190
12. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr, 2010 – B.130-131.